O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
UCHQO'RG'ON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

2022 - yil 7 - iyul 432-6-87-Q/22 Uchqo‘rg‘on tuman hokimligi

Qabristonlarda go‘r qazish hamda marosim xizmatlari bo‘yicha go‘rkovlar va marosim xizmatlarini bajaruvchi xodimlar ta’minoti uchun aholi tomonidan ko‘rsatiladigan pulli xizmatlar ta’rifini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 martdagi 59-son qarori bilan tasdiqlangan “Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalari”ning 42-bandi, 2011 yil 4 apreldagi 101-son qarori bilan tasdiqlangan “Dafn etish joylarini saqlash, ulardan foydalanish va qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 8, 14-bandlariga asosan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Uchqo‘rg‘on tuman obodonlashtirish boshqarmasining 01.06.2022 yildagi kalkulyatsiyasi ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Uchqo‘rg‘on tumanidagi qabristonlarda go‘r qazish bo‘yicha go‘rkovlar ta’minoti uchun aholi tomonidan ko‘rsatiladigan pulli xizmatlar tarifi miqdori quyidagicha etib belgilansin:

12 yoshgacha bo‘lgan bir nafar bola uchun bazaviy hisoblash miqdorining 17,5 foizi;

12 yoshdan katta bo‘lgan bir nafar shaxs uchun bazaviy hisoblash miqdorining 35 foizi.

3. Barcha ishlab turgan qabristonlarda dafn etish uchun joy (uchastka) bepul ajratiladi.

4. Uchqo‘rg‘on tuman obodonlashtirish boshqarmasi:

qabristonlarda go‘r qazish bo‘yicha go‘rkovlar ta’minoti hamda marosim xizmatlari bo‘yicha marosim xizmatlarini bajaruvchi xodimlar ta’minoti uchun aholi tomonidan ko‘rsatiladigan pulli xizmatlar tarifi miqdoriga qat’i rioya etilishini;

ushbu mablag‘lar tegishli ravishda go‘rkovlar va marosim xizmatlarini bajaruvchi xodimlar ta’minoti uchun ishlatilishini;

mazkur pulli xizmatlar tarifi miqdorini aholiga yetkazilishini va to‘g‘ri tushuntirilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror “Yorqin xayot” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga (Uchqo‘rg‘on.uz) joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Uchqo‘rg‘on tuman hokimligining Axborot xizmatlari mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida rasman e’lon qilish va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

8. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Uchqo‘rg‘on tuman hokimining 16.10.2012 yildagi 915-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qarordan norozi shaxslar sudga yoki yuqori turuvchi organga shikoyat qilish huquqiga ega.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari B.To‘lamirzaev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.N.Rizzayev**

Uchqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 7 iyuldagi
432-6-87-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Uchqo’rg’on tuman obodonlashtirish boshqarmasidagi qabristonlarda bitta qabr kovlash xizmatlari uchun belgilangan

KALKULYATSIYASI

№	Xizmat turi	Xizmat xaqi (foiz hisobida)
QABR KOVLASH XIZMATI		
1	O’n ikki yoshdan kattalar uchun 1 ta qabr kovlash	Bazaviy xisoblash miqdorining 35 foizi
2	O’n ikki yoshgacha bo’lgan shaxslar uchun 1 ta qabr kovlash	Bazaviy xisoblash miqdorining 17.5 foizi
Eng kam ish xaqining bazaviy hisoblash miqdori 2022 yil 1 iyun kunidan 300 000 so’m (Xizmat xaqi so’mda)		
1	O’n ikki yoshdan kattalar uchun 1 ta qabr kovlash xizmati	105000 so’m
2	O’n ikki yoshgacha bo’lgan shaxslar uchun 1 ta qabr kovlash xizmati	53000 so’m

Asos: O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 4 apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to’g’risida”gi “O’zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari xaqida”gi 101-sonli qarorining 1-ilovasini 8-bandiga asosan qabr xizmatlari ko’rsatish uchun tarif belgilandi.